

JIZZAX POLITEXNIKA INSTITUTI

Qo'lyozma huquqida
UDK: 330.101.541:330.59 (575.1)

TURDIMURATOV MAQSUD MUZAFFAROVICH

**BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH ASOSIDA AHOLI
TURMUSH SIFATINI OSHIRISH**

08.00.02 – Makroiqtisodiyot

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
ilmiy darajasini olish uchun yozilgan
DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: Xajiev Baxtiyor,
iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent**

Toshkent-2023

MUNDARIJA

Kirish

I BOB. BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

- 1.1. Barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi turmush sifatini oshirishning ilmiy nazariy jihatlar
- 1.2. Iqtisodiy o‘shish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillar.
- 1.3. Ilg‘or xorijiy mamlakatlarda iqtisodiy o‘shish va aholi turmush sifatini oshirish tajribasi

1-bob bo‘yicha xulosalar

II BOB. O‘ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O‘SISH VA AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH DARAJASI TAHLILI

- 2.1. Iqtisodiy o‘shishni hozirgi holati va barqarorlik darajasi tahlili
- 2.2. Aholi turmush sifatini oshirishni belgilovchi ko‘rsatkichlar tahlili
- 2.3. Barqaror iqtisodiy o‘shish va aholi turmush sifatini oshirishga ta'sir etuvchi omillarni ekonometrik tahlili

2-bob bo‘yicha xulosalar

III BOB. BARQAROR IQTISODIY O‘SISHNI TA'MINLASH VA AHOLI TURMUSH SIFATINI OSHIRISH YO‘LLARI

- 3.1. Barqaror iqtisodiy o‘shishning yangi sifatiga erishishda aholi turmush sifatini oshirish yo‘nalishlari
- 3.2. Aholi daromadini oshirish, kambag‘allikni qisqartirishning aniq mexanizmlari
- 3.3. Aholi turmush sifatini oshirish mexanizmini takomillashtirish va uni prognozlari

3-bob bo‘yicha xulosalar

XULOSA

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish jarayonlarining jadallashtirish sharoitida barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, aholi turmush sifati hamda daromadlarini yuksaltirishda iqtisodiy oʻsish mexanizmining ahamiyati oshib bormoqda. Jumladan, jahon mamlakatlari boʻyicha “global real YaIM 2022 yilda 3 foizga, rivojlanayotgan mamlakatlarda 4,0 foizga oʻsgan boʻlib, 2023 yilda 5,7 foizga oʻsishi prognoz qilinmoqda. 2021yilda har oʻrtacha ishchiga toʻgʻri keluvchi mahsulot ishlab chiqarish yuqori daromadli mamlakatlarda past daromadli mamlakatlardagi nisbatan 13,6 barobarga koʻp boʻlgan. 2021 yilda ishsizlik darajasi 6,2 foizni tashkil etib, 2019 yilga nisbatan global ish vaqtining 4,3 foizi yoʻqotilgan”¹. Shu jihatdan ham bugungi kunda taraqqiy etgan mamlakatlar milliy iqtisodiyotida barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash asosida aholi turmush sifati oshirishga alohida eʼtibor qaratilmoqda.

Jahonda keyingi yillarda kechayotgan global oʻzgarishlarni eʼtiborga olgan holda mamlakatni barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash, aholi turmush sifati oshirish, aholi daromadlarini ortishga erishish, kambagʻallikni qisqartirishga qaratilgan keng qamrovli ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Bu borada iqtisodiy oʻsish va aholi turmush sifati oshirishga taʼsir etuvchi omillarni baholash, barqaror iqtisodiy oʻsishning yangi sifatiga erishish orqali aholi turmush sifati oshirish, aholi daromadini oshirish, kambagʻallikni qisqartirish kabi yoʻnalishlardagi tadqiqotlar ustuvor yoʻnalishlardan hisoblanmoqda.

Yangi Oʻzbekistondagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni taʼminlash sharoitida inklyuziv va barqaror iqtisodiy oʻsishga erishish orqali kambagʻallikni ikki barobarga qisqartirish, aholi turmush sifati oshirishga taʼsir etuvchi omillarni baholash, iqtisodiyotda raqobatni taʼminlash, tadbirkorlik subʼektlariga teng sharoitlar yaratish, bozor munosabatlariga toʻlaqonli oʻtishni jadallashtirish, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish kabi masalalarga ustuvor darajada ahamiyat qaratilmoqda. “Iqtisodiyot tarmoqlarida barqaror yuqori oʻsish

¹ <https://www.un.org/sustainabledevelopment/economic-growth/>

sur'atlarini ta'minlash orqali kelgusi besh yilda aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotni 1,6 baravar va 2030 yilga borib aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 ming AQSh dollaridan oshirish hamda “daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar” qatoriga kirish uchun zamin yaratish”² ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Bu borada barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashga ta'sir ko'rsatuvchi milliy mahsulot hajmi va aholi daromadning ko'payishiga hamda iqtisodiy o'sish va aholi turmush sifatini oshirishni prognoz parametrlarini asoslash kabi yo'nalishlardagi tadqiqotlarda alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yilarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”, 2022 yil 8 apreldagi PF-101-son “Tadbirkorlik muhitini yaxshilash va xususiy sektorni rivojlantirish orqali barqaror iqtisodiy o'sish uchun shart-sharoitlar yaratish borasidagi navbatdagi islohotlar to'g'risida”, 2020 yil 26 martdagi PF-5975-son «Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari to'g'risida», 2016 yil 5 oktyabrdagi PF-4848-son «Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta'minlashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbiarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 26 apreldagi 213-son “2022-2026 yillarda Jizzax viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishi ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot fan va texnologiyalar rivojlanishining «Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy hamda madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish» ustuvor yo'nalishi doirasida

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida” PF-60-sonli Farmoni: 74 b.